

UDK: 633.854.78;631.816.1

## ZIG'IR O'SIMLIGI NAVLARINING DALA UNUVCHANLIGIGA EKISH ME'YORLARINING TA'SIRI

**Abirov Zayniddin Zokirovich**

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti “yangi navlar agrotexnologiyasi”  
laboratoriyasi Stajor-tadqiqotchisi

**Mamadiyorov Farxod Doniyorovich**

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti, “Almashlab ekish va tuproqqa ishlov  
berish” laboratoriyasi mudiri  
[farkhod.mamadiyov@gmail.com](mailto:farkhod.mamadiyov@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada Qashqadaryo viloyati sharoitida zig'ir o'simligi navlarini yetishtirishda ekish me'ylarining dala unuvchanligiga ta'siri aniqlangan. Zig'ir o'simligining ikkita navida ekish me'ylarining ortib borishi hisobiga dala unuvchanligining yuqori bo'lishi ta'kidlangan. Tadqiqotning asosiy natijasi sifatida zig'ir o'simligining “sadaf” va “qora shaxzoda” navlarida ekng yuqori dala unuvchanlik “qora shaxzoda” navida kuzatilganligi aniqlandi.*

**Kalit so'zlar:** Zig'ir, o'simlik, nav, urug', ekish me'yor, dala unuvchanlik, tuproq, harorat, yog'in miqdori, iqlim, hektar.

### **ANNOTATION**

*In the article, the impact of planting standards on field fertility in the cultivation of flax varieties in the conditions of Kashkadarya region is determined. In two varieties of flax plant, it was noted that the field fertility was high due to the increase in planting rates. As the main result of the research, it was found that the highest field fertility was observed in the "Black Prince" variety of flax plant "Sadaf" and "Black Prince".*

**Keywords:** Flax, plant, variety, seed, sowing rate, field fertility, soil, temperature, rainfall, climate, hectares.

**KIRISH.** Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlarida kunjut ekini 5,0 mln gettardan ortiq maydonlarida ekilib, 8,2 mln tonnadan ortiq urug‘ yetishtiriladi. Shundan kunjut yetishtirish bo‘yicha yetakchi mamlakatlarga Tanzaniya, Myanma, Hindiston va Xitoy kiradi. Bulardan Hindistonda kunjut jami 1357,8 ming gettar maydonda yetishtriladi. Dunyoda kunjutning o‘rtacha hosildorligi 7,0 s/ga ni tashkil etsa, O‘zbekistonda kunjut lalmikor maydonlarda o‘rtacha 5-6 s/ga, sug‘oriladigan maydonlarda 20-22 s/ga urug‘ hosilini beradi<sup>1</sup>.

Dunyo mamlakatlarida kunjut ekini urug‘idan olinadigan moy uchun hamda ushbu moydan oziq-ovqat, qandolatchilik mahsulotlari, konserva, margarin va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash imkonini berishi sababli keng yetishtiriladi.

Mamlakatimizda aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, jumladan, ekologik toza o‘simlik moyiga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash maqsadida kunjut, kungaboqar, maxsar yetishtirish bo‘yicha izchil choralar ko‘rilmoxda. Moyli ekinlarni ko‘paytirish aholi farovonligini yuksaltirish va fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Shuning uchun, Respublikamiz har bir mintaqasining turli tuproq va iqlim sharoitini hisobga olib, kunjutning turli navlaridan moylilik darajasi yuqori bo‘lgan urug‘ yetishtirish pirovardida mamlakatimizda moyning import salohiyatini kamaytirish va arzon hamda sifatli moy mahsulotlari bilan aholini muntazam ravishda ta’minlash bugungi kundagi dolzarb masala hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta’kidlash joizki, mamlakatimizda bugungi kunga qadar kunjut ekinidan moylilik darajasi yuqori bo‘lgan serhosil urug‘ yetishtirish agrotexnikasiga doir ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmaganligi hamda kunjut ekinini Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida maqbul ekish muddati va me’yorlari ishlab chiqilmaganligini hisobga olib, kunjut navlari o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ekish muddati va me’yorlarining ta’sirini o‘rganishga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish o‘ta muhim hisoblanadi.

<sup>1</sup> <https://reallib.org/reader?file=1221739>

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida kunjut navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni ta’minlaydigan maqbul ekish muddati va me’yorini qo‘llash agrotexnologiyasini qo‘llash evaziga maqbul dala unuvchanligiga erishiladi. Bunda, hosildorlik va sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi. Tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilinishi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan asoslanadi.

**Tadqiqot ob’ekti va usullari.** Urug‘larning unib chiqishiga tuproq hajm og‘irligining ta’sirini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining markaziy tajriba maydonida olib borildi.

Tadqiqot xududi dengiz sathidan 342 metr balandlikda, 33,31318<sup>0</sup> shimoliy kenglikda, 65,53187<sup>0</sup> sharqiy uzunlikda joylashgan. Tuproq qoplami bo‘z tuproqlar sharoiti bo‘lib, chirindi va oziqa moddalar bilan kam darajada ta’minlangan. Sizot suv sathi 5-6 metr, iqlimi keskin kontinental, oktyabrda havo harorati +15,1 °C, nisbiy namlik 41,5%, shamol tezligi 2 m/sek, noyabr va yanvar oylarida havo harorati o‘rtachasi +6,9 °C, nisbiy namlik 72,7%, shamol tezligi 3 m/sek, fevral va aprel oylarida havo harorati o‘rtachasi +11,8 °C, nisbiy namlik 62,7%, shamol tezligi 3 m/sek, may oyida havo harorati +23,9 °C, nisbiy namlik 45,4%, shamol tezligi 4 m/sek ni tashkil qiladi (G‘uzor meteostansiya ma’lumotlari).

Zig‘ir o‘simligining unib chiqishini aniqlashda umum kabul qilingan uslublarda amalga oshirildi.

## NATIJALAR

Kunjut urug‘larining dala unuvchanligi harorat, tuproqdagi namlik, urug‘larning ekinboplik sifatlari va boshqa omillariga bog‘liq holda o‘zgaradi. Kunjutdan mo‘l va sifatli hosil olishda urug‘larni to‘liq undirib olish muhim ahamiyatga ega. Ko‘plab adabiyotlar ma’lumotlari tahliliga ko‘ra, moyli ekinlar urug‘larining dala unuvchanligi o‘tmishdosh ekinlar, ob-havo sharoiti, ekish muddatini tanlash, ekish chuqurligini belgilash, tuproqda yetarli namlikning bo‘lishi, tuproqni ekishga tayyorlash va boshqa omillarga bog‘liq.

Tajribada kunjutning «**Sadaf**» va «**Qora Shaxzoda**» navlari 1 mln dona/ga me'yorida ekilganda dala unuvchanligi tegishlicha 59,5; 66,6%, 1,5 mln dona/ga me'yorida ekilganda 66,4; 73,5%, 2 mln dona/ga me'yorida ekilganda, 80,2; 81,9%, 3 mln dona/ga me'yorida ekilganda esa, 79,6; 81,1 foizni tashkil etgan (1-jadval).

### **1-jadval**

#### **Zig‘ir navlarining dala unuvchanligi**

(*JDITI ning tajriba maydoni 2023.y)*

<b>Ekin turi</b>	<b>Nav nomi</b>	<b>Ekish me'yori, mln dona/ga</b>	<b>Dala unuvchanligi</b>	
			<b>mln dona/ga</b>	<b>%</b>
<b>Kunjut</b>	<b>Sadaf</b>	1,0	0,5946	59,5
		1,5	0,9954	66,4
		2,0	1,6039	80,2
		3,0	2,3878	79,6
	<b>Qora shaxzoda</b>	1,0	0,6656	66,6
		1,5	1,1026	73,5
		2,0	1,6372	81,9
		3,0	2,4327	81,1

Olib borilgan dala tajribamizda olingan natijalardan shuni ta'kidlab o'tish joizki, kunjut navlarida dala unuvchanligi yuqori bo'lishi ekish usullari va me'yorlariga bog'liq bo'lib, Bizning olib borgan dala tadqiqotimizda kunjutning «**Sadaf**» va «**Qora Shaxzoda**» navlari 2 mln dona/ga me'yorida ekilganda dala unuvchanligi maqbul bo'lishi kuzatildi.

### **MUXOKAMA**

Olib borilgan dala tajribamizda olingan natijalardan shuni ta'kidlab o'tish joizki, kunjut navlarida dala unuvchanligi yuqori bo'lishi ekish usullari va me'yorlariga bog'liq bo'lib, Bizning olib borgan dala tadqiqotimizda kunjutning «**Sadaf**» va «**Qora Shaxzoda**» navlari 2 mln dona/ga me'yorida ekilganda dala unuvchanligi maqbul bo'lishi kuzatildi.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, zig‘ir o‘simligi navlarini yetishtirishda ekish me’yorlarining dala unuvchanligiga ta’siri bo‘lib, ekish me’yorlarining ortib borishi hisobiga dala unuvchanligining yuqori bo‘lishi ta’kidlangan.

Qashqadaryo viloyati sharoitida zig‘ir o‘simligining “sadaf” va “qora shaxzoda” navlari orasida eng yuqori dala unuvchanlik “qora shaxzoda” navida kuzatilganligi aniqlandi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi PF 5853-son «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi» Farmoni. [Lex.uz](#)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 iyundagi PF-5742-sun «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora tadbirlari to‘g‘risida» gi Farmoni. [Lex.uz](#)
3. Arinushkina. Ye.V. *Rukovodstvo po ximicheskому analizu pochv.* M. MGU.1970. – 488 s.
4. *Dala tajribalarni olib borish uslublari.* (2007). O‘zPITI.
5. Mamadiyorov F., Ro‘zmonov A., Annaeva N. *Almashlab ekish tizimida o‘simliklar urug‘ining dala unuvchanligiga tuproq zichligining ta’siri.* SCHOLAR scientific journal.(ISSN 2181-4147). Vol.1. No.1(13) (2023): R-107-113.
6. <https://reallib.org/reader?file=1221739>